

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

METODIKA

2023 Vol. 4 (2)

www.metodika.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir

Marg'uba Abdullayeva

Bosh muharrir o'rinnbosarlari

Qozoqboy Yo'ldoshev

Roza Niyozmetova

Mas'ul kotib

Klaraxon Mavlonova

Tahrir kengashi

Fatma Achik (Turkiya), Ayshi Chetin (Turkiya), Sahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Homidjon Homidiy, Shohida Yusupova, Shahlo Yo'ldosheva, Nusratillo Jumaxo'ja, Nishonboy Xusanov, Gulshan Asilova, Gulnoza Jo'rayeva, Shahnoza Rahmonova, Tursunoy Yusupova, Hoshimjon Ahmedov, Tozagul Matyoqubova, Saodat Qambarova, Husnigul Jurayeva, Sohiba Umarova, Shohrux Abduraimov, Munira Shodmonova, Mahfuza To'ychiyeva, Matluba Jabborova, Abdug'ofir Rahmonov, Iroda Ishonxanova, Sanobar Kuldasheva (texnik muharrir).

Jurnal haqida ma'lumot

"Metodika" seriyasi – Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, ta'lim va tarbiya nazariyasi, til va adabiyot o'qitish metodikasi, gumanitar fanlarni o'qitish sohalarini qamrab olgan. "Metodika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning global ta'limdagi muammolar, til va adabiyot o'qitishdagи innovatsion yondashuvlar, ta'lim va tarbiya nazariyasi yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. "Metodika" seriyasi 2022-yildan nashr etila boshlangan.

Manzil: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: metodika@tsuull.uz

Vebsayt: www.metodika.tsuull.uz

O'zbek bolalar adabiyotini o'qitishda pedagogik texnologiyalar va metodlarning o'ziga xos xususiyatlari

Mahliyo Elboyeva³⁶

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek bolalar adabiyotini o'qitishda pedagogik texnologiyalar va metodlarning o'ziga xos xususiyatlari, afzallikkleri haqida fikr yuritilgan. Bolalarga adabiyot darslarini tushunarli, qiziqarli va jonli o'tishimiz uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan bolalarning yoshi va qabul qila olishi doirasiga qarab, ishlab chiqamiz. Murakkab mavzularni o'quvchilarga soddaroq tushuntirishimiz uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan hamda darsning turli xil shakllaridan foydalalanib darsni loyihalashtiramiz. Bundan maqsad o'quvchilarimizni mustaqil va erkin fikrlaydigan bugungi kun talabiga javob beradigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Zero, ta'lism bir joyda qotib qolmaydi, shu sababli ham ta'lism berishning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil usuldag'i darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. O'quvchiga faqat bir tomonlama bilim berish bilan cheklanib qolmay, unga olgan bilimlarini amalda qo'llay olish, mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini o'rgatish kerak. Pedagogik texnologiyalardan foydalananib dars tashkillashtirish darsning samarador o'tishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Noan'anaviy ta'lism, ta'lism metodlari, milliy dastur, texnologiyalar, o'yin texnologiyalari

Kirish

Bolalar adabiyoti darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lism mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish adabiyot fanidan "Milliy o'quv dasturi" talablarini bajarishga zamin yaratadi. Adabiyot darslarida noan'anaviy metodlardan foydalinish dars samaradorligini hamda bolaning darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Bolalar adabiyotiga oid yaratilgan ko'pgina asarlar kinofilmlar, multfilmlar tarzida televideniyyeda namoyish etilgan. Shuning uchun bolada "bu asarni ko'rganman, bilaman" degan noto'g'ri tushuncha paydo bo'ladi va u asarning badiiy qimmatidan bebahra qoladi. Bunday ma'naviy tanballikdan qutulish uchun o'qituvchi o'quvchining e'tiborini jalb qila oladigan metodlardan foydalananib dars

³⁶ Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi- Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek adabiyoti ta'limi kafedrasini o'qituvchisi

E-mail: elboyevamahliyo@navoiy-uni.uz

ORCID ID:0000-0003-2619-3309

Iqtibos uchun: Elboyeva, M.2023. "O'zbek bolalar adabiyotini o'qitishda pedagogik texnologiyalar va metodlarning o'ziga xos xususiyatlari". O'zbekiston:til va madaniyat 2(4)19-28

o'tishi, ekranda ko'rsatilmagan, faqat so'zdagina aks etgan jihatlarga urg'u berishi maqsadga muvofiq.

Asosiy qism

Dars o'tishimiz qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqamiz. Murakkab mavzularni o'quvchilarga tushuntirishimiz oson bo'lishi uchun "Hamkorlikdagi dars", "Zakovat", "Modul dars", "Zig-zag", "O'yin dars", "Sayohat dars", "Musobaqa dars" kabi dars usullardan foydalanamiz. Dars davomida o'zimiz o'rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanamiz. Shuning uchun, iloji boricha, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil usuldag'i darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Bolani zeriktirmaslik uchun dars o'tishning turli xil usullaridan foydalanish darsning samarador o'tishini ta'minlaydi. Dars jarayonida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun muhim va qadrlidir.

Noan'anavy darsning asosiy yo'nalishlari:

- a) O'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini shakllantirish ;
- b) O'quvchining fikrini bir nuqtaga jamlash;
- c) O'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;
- d) Olgan bilimlarni amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokazo...

Shu maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi:

- o'quvchilarga kerakli metodik yordam ko'rsatish;
 - turkum fanlar bo'yicha uchrashuvlar, ilmiy-amaliy konferensiya hamda seminarlar tashkil etish;
 - darslarni kuzatish va ularda pedagogik texnologiya elementlarini qo'llash darajasini oshirish;
 - ilg'or ijodkor o'qituvchilar tajribasini o'rganish va ommalashtirish.
- [Saidova G. 2012, 45-46]

Bolaga dars jarayonida umumiylar yoki mavhum tushunchalar o'rniiga aniq asoslangan ma'lumotlar berish lozim. Bugungi taraqqiyot har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o'z navbatida adabiyot fan o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Darslar davomida adabiy kechalar o'tkazish ham o'ziga xos samara beruvchi usullardan biridir. Bolalar bunday tadbirlarda she'rlardan namunalar yodlaydilar, rollarga bo'linib, asarlardan namunalar ko'rsatib berishadi. O'qituvchi har bir bolaning mehnatini rag'batlantirib borsa, shundagina bolada darsga va fanga qiziqish uyg'onadi, yana ham ko'proq izlanishga, o'qishga chorlaydi.

Bolalar adabiyotini o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zamонавиу та'lімни ташкіл етішда түрлі xil o'yinlardan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda adabiy ta'lіm jarayonida qo'llash nihoyatda qulay bo'lgan bir qator o'yinli texnologiyalar yaratilmoqda. O'yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy malaka va ko'nikmalariga aylanishini ta'minlabgina qolmay, balki ta'lіm oluvchilarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga o'z ulushini qo'shamdi. Bola ko'z o'ngida xilma-xil asar qahramonlariga xos portret qiyofalarini jonlantirish vositasida u qaysi asar qahramoni ekanini topish o'yinini olib borish mumkin:

Masalan, 5-sinfda Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" asari yuzasidan quyidagicha portret qiyofalarini jonlantirish mumkin:

1. "Shul yoshidin kitobga muhabbat qo'ysa, ulg'aygach, kitobni ilkidan ayirmay o'zi bilan asrab yurg'ay", deb kimga ta'rif berilgan? (Alisher Navoiy)

2. U xushchaqchaq, gapdon yigit bo'lib, tor va tanburni yaxshi chalar, o'z suhbat bilan majlisga jon kirgizar edi. (Muhammad Ali)

3. U o'yinchoq qo'chqor urishtirishga, "shahar tashqarisidagi Gozurgohta chiqib" kamondan o'q otishga ko'proq qiziqardi. (Husayn Boyqaro) [5-sinf adabiyot darsligi darslik/ S.Ahmedov, B.Qosimov va boshqalar. 2020, 92-93]

O'qituvchi shu kabi portret qiyofalarni o'qib, kim ta'riflanganini so'raydi. O'quvchilar esa o'qigan asari yuzasidan kimligini eslab topib aytadi. Bunday o'yin darslari o'quvchilarni mustaqil fikrplashga, ijodkorlikka yo'naltirishga yordam beradi. Bola o'zlashtirgan bilim va malakalariga tayanib o'yin darsi vositasida mustaqil harakat qiladi, o'quv topshiriqlarini bajaradi. Qo'yilgan muammolarni yechadi. Muammoli ta'lіm usuli o'quvchini ma'lum bir muammo ustida bosh qotirishga, shu muammoga o'z munosabatini bildirgan holda yondashib, uni hal etishga yo'llovchi dars turidir. [Djumaboyeva O. 2011, 67-69].

O'zbek bolalar adabiyotini o'qitish samarali bo'lishi kerak. Buning uchun dars jarayonlarida ta'lіming turli xil usullaridan foydalanish lozim. Xususan, munozara usulidan foydalanish. Munozara usuli muammoli ta'lіm usuliga kiradi. Bu usul o'quvchilarga quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- muayyan mavzu bo'yicha fikrni shakllantirish;
- o'z fikrini to'g'ri ifodalash va himoya qilish;
- o'zini jamoaning bir qismi sifatida his qilish.

Munozarali darslarni o'tkazish uchun bolalar oldindan tayyorlarlik ko'rishi maqsadga muvofiq. Ularga muammoli savollar berilishi va shu muammoni har bir o'quvchi o'zicha hal qilgan holda darsga tayyorlanib kelishi kerak. Munozara darslarini har bir o'tilgan mavzu yuzasidan ham o'tib bo'lmaydi. Buning uchun o'qituvchi asarni sinchiklab o'rganib chiqishi kerak. Shundan so'nggina o'quvchilarda bahs-munozara uyg'ota

oladigan savollar tayyorlashi, keyin ularni bolalarga havola qilishi zarur. Zeroki, yosh kitobxonlarimiz ongida o'zgacha fikr uyg'otishimiz, ularda har bir muammoga o'zlarining yechimlari bo'lishi kerakligini o'rgatishimiz uchun darsda munozara usullaridan foydalanish ancha faol va samarali dars usuli hisoblanadi.

Har bir asarni to'liq o'rganib chiqqandan keyingina munozara usulidan foydalanib darsni loyihalashtirish maqsadga muvofiq. Chunki bola asar bilan yaxshi va to'liq tanishmagan bo'lsa, berilgan muammoni to'g'ri tushuna olmaydi va savollarga javob berishga ojizlik qiladi. O'z fikrida ishonchi bo'limgan bola bahsga aralashib, faollik ko'rsata olmaydi.

Muammoli ta'lif usullaridan foydalanish bolaga erkin so'zlashni, jamoada ishlashni, o'z fikrini dalillar bilan isbotlashni, muhokama va munozara yuritishni o'rgatadi. Bolada haqiqatni yuzaga chiqarishga intilish xuddi shu munozara darslarida uyg'onadi. O'qituvchi darslikdan tashqari materiallar bilan ham tanishib, tayyorlanib kelsa ham, uni o'quvchilarga sodda tarzda yetkazib berishga harakat qilishi kerak. Avvalo, bolaga bola tilida uning tushunchasi qabul qila oladigan darajada yetkazish yuqori darajadagi pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar talab qiladi.

Masalan: Turob To'laning "Yeti zog'ora qissasi" turkumidan "Do'nан" hikoyasini olaylik. Ushbu hikoyani o'rganish davomida darsning munozarali usulidan foydalanib, o'quvchiga muammoli savollarni beramiz.

1. Hikoyani o'qish davomida nimalar xayolingizda shakklandi?
2. "Do'nан" hikoyasidagi qaysi qahramon sizga kuchli ta'sir qildi?
3. Odam va otning bir-biriga bu qadar mehr qo'yishining bosh sababi nimada deb o'ylaysiz?
4. Bolaning otasi mehmondan otni qaytarib olib kelmaganini qanday baholaysiz?
5. Hikoyadagi bola obraziga qanday munosabat bildirasiz?

Javoblar tinglanadi, izohlanadi, so'ng asar mazmuniga yana ham chuqurroq kirish uchun "Suqrot" metodidan foydalaniladi.

O'qituvchi: - Asarda tilga olingan joy nomlari? Darslikdan qidirib toping va daftaringizga yozing. Fikringiz bilan javobni to'ldiring.

(Topshiriq tayyor bo'lgach, o'quvchilar birin-ketin o'qiydilar).

O'quvchi: Chorpo'lat, Turbat, Matansoy – joy nomlari

O'qituvchi:

1. Hikoyani o'qiganingizda qaysi o'rirlari sizda yaxshi taassurot qoldirdi?

2. Sizning hayvonlarga bo'lgan munosabatingiz qanday? Savollarga javob bering.

O'quvchilar jamoa bo'lgan holda vazifalarni bajaradilar. Topshiriqlarning har biriga javobni yozuv taxtasiga yozib boradilar.

Uyga topshiriqda o'quvchilar hikoyadan asar qahramonlariga xos bo'lgan vaziyatni belgilaydilar, sababini ko'rsatadilar va vaziyatdan

chiqib ketish harakatlarini yozib chiqadilar. (Baxshilla, otasi, mehmon, akasi, do'nani).

Dars jarayonida bolalar baholanadi, faol ishtirok etganlar rag'batlantiriladi. Darhaqiqat, darsni noan'anaviy ta'lif metodi asosida tashkil qilar ekanmiz, eng avvalo, bir savol tug'iladi. Noan'anaviy ta'lif texnologiyasi nima? Ushbu tushunchani yaxshi o'rganib olishimiz, darsimiz samaradorligini hamda o'quvchilarning savodxonligini oshirishimizga yana ham katta yordam beradi.

Noan'anaviy ta'lif texnologiyasi - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lif jarayoni markazida o'quvchi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lif-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir.

Noan'anaviy ta'lif texnologiyasi an'anaviy ta'lif texnologiyasidan farq qilib, o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini rivojlanishiga sharoit yaratadi, mustaqil ishlashlariga alohida e'tibor beriladi, bilish faoliyatları izlanuvchan va ijodiy xarekterga ega bo'ladi. Dars tuzilmasi o'zgaruvchan bo'ladi.

Noan'anaviy ta'lif texnologiyasi o'z navbatida uchga bo'linadi:

- Hamkorlikda o'rganish
- Modellashtirish
- Tadqiqot (loyiha)

Hamkorlikda o'rganish - o'quvchilarning bilimini o'zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo'yicha reproduktiv faoliyatini ta'minlovchi, mahorat va malakani ketma-ketlik bo'yicha o'quvchining bevosita boshchiligidagi ishga solishni tashkil etishga asoslangan o'qitish va bilim olishdir. U o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lif olishni ko'zda tutadigan metodlardan iborat. Bularga kitob bilan ishslash, o'quv suhbati, davra suhbati, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara kabi metodlarni kiritish mumkin.

Modellashtirish - real hayotda va jamiyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini sinifa yaratish va ularda o'quvchilarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'lif olishini nazarda tutadi. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarini o'zlashtirishda bevosita ishtirokini ta'minlash orqali ta'lif jarayoning samaradorligini oshirishga qaratilgan. [Saidova G.2012,34-38]

Texnologiya o'zining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, samaradorligi, oldindan loyilanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi. O'quvchining muayyan fanni o'zlashtirishlari uchun o'qituvchi metod va texnologiyalarni to'g'ri tanlay olishlari lozim.

Men bolalar adabiyotini o'rgatishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanaman. Bu texnologiya bolalarga jamoa bilan ishslash, ularni o'zaro hamkorlikga chorlash, birga fikr yuritish, o'z-o'zini boshqarish kabi harakatlarni o'rgatadi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlarda, Amerikada J.Xopkins universiteti professori – R.Slatin, Minnesot universiteti professori – R.Jonson, D.Jonson, Kaliforniya universiteti professori – Sh.Sharon tomonidan ishlab chiqilgan.[Omonov H, Xattabov M. 2012, 67-70]

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish, asosan o'quvchilarda adabiyot fanidan "Milliy o'quv dasturi"da qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, Isroil va Yevropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishslash, loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazish nazarda tutiladi.

Mazkur g'oyalalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida 1970-yildan boshlab keng qo'llanila boshlagan [Axatova D.2010, 67-68]. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qib, o'rganishdir.

Hamkorlikda o'qitish har bir bolani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ong'lilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir bolada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va bilimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni nazarda tutadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir bolaning ta'lim olishdag'i muvafaqqiyati guruh muvafaqqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatlari bajarishga, o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyuştirishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud.

1. Komandada o'qitish (R.Slatin)da bolalar teng ikki komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqlarni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarni hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi [Saidova G. 2011: 57-59].

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slatinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi yetarli emas. O'quvchilar tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvafaqqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiya o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish sifatini aniqlashda

ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi.

2. Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish (R.Slatin)

Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta boladan tashkil topadi. O'qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so'ngra bolalarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. Bolalarga berilgan o'quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir bola topshiriqnning ma'lum bir qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir bola o'zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o'rtoqlarini o'qitadi, so'ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. [Axatova D.2010,43-48]

O'qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yoki og'zaki savollar yordamida bilimlarini nazorat qilib baholaydi. Bolalarning kichik guruhlardagi o'quv faoliyati o'yin (musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin. O'qituvchi va bolaning hamkorlikdagi faoliyatiga doir tadqiqotlarda asosiy e'tibor o'zaro munosabatning rivojlanishini o'rganishga qaratiladi, o'qitishni guruhli tashkil qilish jarayoni bayon qilinadi.

O'zaro hamkorlikning muhim omili va bolalarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilovchi asos o'qituvchi va bola munosabatlarining va birgalikdagi xatti-harakatlarining alohida turidirki, u o'zlashtirish obyektini, bilim faoliyatining barcha qismlarini qayta qurishni ta'minlaydi.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtirgan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o'quvchilar ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sherikchilikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir.

Ushbu texnologiya orqali bolalarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi. O'qituvchi bilan bola orasidagi munosabat sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Pedagogika va psixologiyada hamkorlikning 8 ta shakli mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir:

- 1) faoliyatga kirishish;
- 2) mustaqil harakarlar o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda bajaradilar;
- 3) o'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o'quvchini jalb qiladi;
- 4) taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan o'quvchi ana shu namuna asosida harakat qiladi);
- 5) madad harakatlari (o'qituvchi o'quvchiga oralig' maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi va oxirgi natijani nazorat qiladi);

- 6) o'z-o'zini boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda, oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
 7) o'z-o'zini ko'rsatuvchi harakatlar;
 8) o'zini-o'zi uyushtiruvchi harakatlar [Axatova D. 2010,56-59]

Hamkorlikdagi o'qitish texnologiyasi bolalar adabiyotini o'rganishda yana ham soddaroq, bolaga tez yetib boradigan hamda bolaning mustaqil izlanishiga turtki bo'ladigan, asosiy metodlardan hisoblanadi. Ushbu metodga yuqorida bir qancha misollar keltirib o'tdik, ya'ni bolalar adabiyotiga oid asarlarni kichik guruuhlar orqali o'rganishga oid bir qancha asarlardan misollar keltirib o'tdik. O'yaymizki, ushbu metod bolalar adabiyotini o'rganishda ko'zlagan maqsadimizga yetishishda ko'mak beradi.

Shuni ham ta'kidlab o'tishim kerakki, ta'lif texnologiyalarini tanlash va amalga oshirishda bolalarning o'quv bilish faoliyatlarini e'tiborga olish lozim. Amaliyotdagi oddiy qoida shu haqda guvohlik beradiki, yangi tushunchalar berish tipidagi darslarning dastlabki 7-10 daqiqasida bolalarga yangi bilimlarni berish shaklida loyihalashtiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishslash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim.

Har qanday holatda ham nazariy dars jarayonidagi tushunchalarini berishga ajratilgan vaqt 15-20 daqiqasi eng samarali, 25-30 daqiqadan keyin esa o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi tezda pasaya boshlaydi.

Idrok qilish paytida qancha ko'p sensorlik (sezgi) kanallaridan foydalansilsa, esda olib qolining bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Agar bilimlar faqat ma'ruzlar orqali berilgan bo'lsa, unda 3 kundan so'ng ularning faqat ma'lum bir foizini eslashi mumkin bo'ladi, xolos. Agar u ma'ruzalar o'qish, namoyish va ko'rgazmali qilish (ko'rish, ushlab ko'rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to'g'risida bahslashilsa, bola xotirasida saqlanib qolish ehtimoli yuqori darajada bo'ladi. [Saidova G.2012,47-50].

Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sonorlik kanallari ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Bolalarning o'zlashtirish darajasiga o'qitish metodlarining ta'siri darajasini ko'rib chiqamiz:

1. Ma'ruza – eshitganimizning 5 foizini;
2. O'qish – o'qiganimizning 10 foizini;
3. Videousul, namoyish – ko'rganimizning 20 foizini;
4. Tajribani namoyish qilish – ko'rgan va eshitganimizning 30 foizini;
5. Bahs-munozara – muhokama qilganimizning 40 foizini;
6. Mashqlar – o'qigan, yozgan, gapirganimizning 50 foizini;
7. Ishbop o'yin, kichik guruhlarda ishslash, loyihalash – mustaqil o'qiganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, himoya va namoyish qilganimizning ma'lum 70 foizini;

8. Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish – mustaqil o'rganganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, boshqalarni o'qitgan narsalarimizning 90 foizini eslab qolishimiz mumkin [Saidova G.2012, 56-58].

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida noan'anaviy metodlar qo'llanganda, o'quvchilarning, ya'ni bolalarning axborotni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 30% ni tashkil etar ekan. Noan'anaviy metodlar qo'llanilganda esa, bolalarning axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ortib bordi.

Ta'lrim jarayonida foydalanishimiz mumkin bo'lgan metodlarni tanlash vaqtida hisobga olish lozim bo'lgan jihatlarning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Bolalar adabiyotini o'qitishda biz o'quv faoliyatining harakatida maqsadning barcha komponentlari amalga oshar ekan, turli metodlarni birgalikda qo'llash zarur, shuning uchun metod tanlashda eng asosiy omil bo'lib o'quv mashg'ulotining didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Metod tanlash nafaqat o'quv maqsadidan, balki o'quv materiali mazmuniga va fanning murakkabligiga bog'liq. Bundan tashqari metodlarni tanlashda o'quvchilarning, ya'ni bolalarning soni, ularning o'quv imkoniyatlari, ta'limga davomiyligi, o'quv moddiy sharoitlar va o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

Noan'anaviy ta'limga metodlari asosida dars o'tish va mavzuni bolalarga tushuntirish darsning qiziqarli o'tishi bilan bir qatorda, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bola xotirasida darsning ma'lum bir qismi saqlanib qoladi, chunki bola asarni yoki bironta marta shunchaki o'qib chiqqanda uning diqqat faoliyati bir jihatga qaratilmagan tarqoq holda bo'ladi. Shu sababli darsni turli xil ko'rgazmali vositalar, videoesullar, audio vositalar hamda turli rolli o'yinlar yordamida tashkil etilsa, bolanining diqqatini jamlashga fikrini aniq bir maqsadga yo'naltirishga erishamiz.

Xulosa

Xulosa o'rnila shuni aytishimiz kerakki, noan'anaviy ta'limga metodlari asosida bolalar adabiyotini o'rganish har tomonlama kutilgan natijani beradi.

Birinchidan, bolada mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr ortadi.

Ikkinchidan, bolada darsni o'zlashtirishning foiz ko'rsatkichlari ham ma'lum miqdorda yuqori bo'ladi. Qo'llanilgan ta'limga texnologiyari va metodlar fanni yana ham qiziqarliroq shaklda tashkil etishda hamda bolaning diqqatini jalg qilishda o'qituvchiga katta yordam beradi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish ham kerakki, ushbu yuqorida keltirib o'tilgan ta'limga texnologiyalari asosida darsni to'g'ri tashkil etish o'qituvchidan yuqori darajadagi pedagogik mahoratni ham talab qiladi.

Adabiyotlar

- Axatova Dildora, 2012. Boshlang'ich ta'lilda zamonaviy pedagogik texnologiyalar //O'quv-uslubiy majmua. Nukus.
- Alimova G, Z.Nishonova, 2006. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi.Toshkent.
- Djumaboyeva O, 2011. "8-sinf adabiyot darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish". Nukus.
- Omonov H, Xattabov M, 2016. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat// O'quv qo'llanma. Toshkent.
- Saidova Gulasal, 2012.Boshlang'ich sinf o'qish darslarida interaktiv metodlardan foydalanish. Nukus.
- 5-sinf adabiyot darsligi darslik// Ahmedov Sunnatilla, Qosimov Begali, 2020. Toshkent: "Sharq".

Stading Uzbek children's literature based on non-traditional educational methods

Elboyeva Mahliyo³⁷

Abstract

This article discusses the specific features and advantages of pedagogical technologies and methods in teaching Uzbek children's literature. In order to make literature lessons for children understandable, interesting and lively, we develop modern pedagogical technologies depending on the age and receptiveness of children. We design lessons using modern pedagogical technologies and different forms of lessons in order to explain complex topics to students more simply. The purpose of this is to educate our students as independent and free-thinking individuals who meet today's demands. After all, education does not freeze in one place, so we need to search for new methods of education. Because students don't like lessons in the same way, they get bored. It is necessary to teach the student not only to give one-sided knowledge, but also to be able to apply the acquired knowledge in practice, to express an independent opinion. Organizing a lesson using pedagogical technologies ensures the effective course of the lesson.

Key words: *Non-traditional education, educational methods, national program, technologies, game technologies*

Referens

- Axatova Dildora, 2012. Boshlang'ich ta'lilda zamonaviy pedagogik texnologiyalar //O'quv-uslubiy majmua. Nukus.

³⁷ Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi- A teacher of the department of Uzbek literature education at ToshDO'TAU named after Alisher Navoi

E-mail:elboyevamahliyo@navoiy-uni.uz

ORCID ID:0000-0003-2619-3309

Iqtibos uchun: Elboyeva, M.2023. "O'zbek bolalar adabiyotini o'qitishda no-an'anaviy ta'lim metodlari asosida o'rGANISH".O'zbekiston:til va madaniyat 2(4)19-28

Alimova G, Z.Nishonova, 2006. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi.Toshkent.

Djumaboyeva O, 2011. "8-sinf adabiyot darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish". Nukus.

Omonov H, Xattabov M, 2016. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat// O'quv qo'llanma. Toshkent.

Saidova Gulasal, 2012.Boshlang'ich sinf o'qish darslarida interaktiv metodlardan foydalanish. Nukus.

5-sinf adabiyot darsligi darslik// Ahmedov Sunnatilla, Qosimov Begali, 2020. Toshkent: "Sharq".